



UMUMIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Amanova Onarxol Chariyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti
"Xorijiy til va adabiyoti" yuqori kurslar kafedrası o'qituvchisi
E-mail: O.amanova@dtpi

Islomov Ilyosjon Isroiljon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika
fakulteti o'qituvchisi
E-mail: i.islomov@dtpi.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377193>

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy tilshunoslik fanining dolzarb masalalari, uning shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy lingvistik yo'nalishlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi tabiati, uning tuzilishi, funksiyasi va rivojlanish qonuniyatlari xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, hozirgi davr tilshunosligida uchrayotgan konseptual muammolar, metodologik yondashuvlar hamda fanlararo integratsiya jarayonlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: til, tilshunoslik, umumiy tilshunoslik, strukturalizm, funksionalizm, metodologiya, lingvistika, kommunikatsiya

Til nafaqat aloqa vositasi, balki u inson tabiyatining o'ziga hos kaliti hamdir, chunki inson tafakurining bayon etilishi til orqali amalga oshadi. Shuni ham takidlash joyizki, til insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biridir. U jamiyat hayotining barcha sohalarida bevosita ishtirok etadi, inson tafakkurining ifodachisi sifatida faoliyat yuritadi. Tilshunoslik esa tilning kelib chiqishi, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, uning tarkibida umumiy tilshunoslik alohida o'rin tutadi. Umumiy tilshunoslik – bu tilni umumiy nazariy jihatdan, ya'ni barcha tillarga xos qonuniyatlar nuqtayi nazaridan o'rganadigan yo'nalishdir. U tildagi umumiylik va farqlilikni, til hodisalarining mohiyatini, ularni o'rganish usullarini aniqlashga xizmat qiladi. Tilshunoslik (lingvistika) – inson nutqi va til tizimini o'rganadigan fan. Uning tarixi qadimiy bo'lib, dastlab falsafa va mantiq bilan birga rivojlangan. Tilshunoslikka bo'lgan ehtiyoj: insonlar o'zaro muloqotini izohlash, diniy matnlarni tushunish va sharhlash, adabiy merosni asrash hamda kelajak avlodga yetkazish zaruratidan kelib chiqqan.

Tilshunoslik – inson tilini ilmiy asosda o'rganuvchi fandır. Til esa jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy faoliyatining aksidir. Tilshunoslik juda keng doiradagi sohalarni qamrab oladi, shulardan eng muhimlaridan biri – umumiy tilshunoslikdir. U barcha tillarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni, tilning mohiyati, funksiyalari, strukturasi, shakllanishi va rivojlanishi kabi masalalarni o'rganadi. Aynan umumiy tilshunoslik orqali tilshunoslik fanining nazariy poydevori yaratiladi.

Umumiy tilshunoslikning shakllanishi qadim davrlardagi tilga oid falsafiy qarashlardan boshlanadi. Aristotel, Platon kabi faylasuflar tildagi ma'no va shakl munosabatini, so'z va tushuncha orasidagi bog'liqlikni izohlashgan. XIX asrda esa tilshunoslik ilm sifatida mustaqil shakllandi. Ferdinand de Sossyur tomonidan asos solingan strukturalizm nazariyasi tilni mustaqil tizim sifatida tahlil qilishga yo'l ochdi.

Tilshunoslik fanining asosiy yo'nalishlaridan biri bu umumiy tilshunoslikdir. U tilning tabiatini, mazmunini, funksiyalarini, rivojlanish qonuniyatlarini hamda barcha tillarga xos bo'lgan umumiy

xususiyatlarni nazariy jihatdan o'rganadi. Umumiy tilshunoslik konkret bir tilni emas, balki inson tilining umumiy xususiyatlarini, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni, tilning jamiyatdagi o'rnini hamda til tizimining ichki qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Tilning mohiyati va funksiyasi

Til – bu insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib, u orqali odamlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, istak va ehtiyojlarini ifoda etadilar. Til faqat aloqa vositasi bo'libgina qolmay, balki tafakkurni shakllantiruvchi, jamiyatni birlashtiruvchi, madaniyatni saqlovchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda tilning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

Kommunikativ funksiyasi – aloqa qilish;

Ekspressiv funksiyasi – hissiyotlarni ifodalash;

Nominal funksiyasi – atash, nomlash;

Tafakkuriy funksiyasi – fikrlash vositasi bo'lish.

Til va tafakkur munosabati

Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik tilshunoslikdagi eng muhim nazariy masalalardan biridir. Ba'zi olimlarning fikricha, tafakkur til orqali shakllanadi. Shu nuqtai nazar Sapir va Whorf nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular til tafakkurga ta'sir qiladi, degan g'oyani ilgari surganlar. Boshqa olimlar esa til va tafakkur bir-biridan mustaqil ekanini ta'kidlaydi. Ammo ko'pchilik til tafakkurni shakllantirishda asosiy vosita ekaniga qo'shiladi.

Til va jamiyat

Til ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat jamiyati bilan chambarchas bog'liq. Har bir til ma'lum bir jamiyatning mahsuli bo'lib, uning tarixiy, madaniy va siyosiy taraqqiyoti bilan bevosita aloqadordir. Shu sababli tilni ijtimoiy muhitdan ajratib o'rganib bo'lmaydi.

Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganadi. Bu yo'nalishda tilning ijtimoiy qatlamlarga ta'siri, dialektlar, jargonlar, kasbiy tillar, genderga oid til xususiyatlari kabi masalalar tahlil qilinadi.

Tillar tipologiyasi va ularni tasniflash

Umumiy tilshunoslik tillarning tasnifi bilan ham shug'ullanadi. Tillar genealogik (kelib chiqishi) va tipologik (strukturaviy) jihatdan tasniflanadi. Genealogik tasnifda tillar o'zaro qarindoshlikka asoslanib guruhlanadi (masalan, turkiy tillar, slavyan tillari). Tipologik tasnif esa til tuzilishiga qarab amalga oshiriladi. Masalan:

Agglutinativ tillar (turkiy tillar): qo'shimchalar aniq ajralib turadi;

Flektiv tillar (lotin, rus): qo'shimchalar turg'un emas, o'zgaruvchan;

Izolyativ tillar (xitoy): grammatik ko'rsatkichlar deyarli yo'q.

Tilning universal qonuniyatlari.

Umumiy tilshunoslik har bir tilga xos bo'lgan, lekin barcha tillarda mavjud bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlashga harakat qiladi. Masalan, barcha tillarda tovushlar, so'zlar, gaplar mavjud. Barcha tillarda kommunikatsiya uchun zarur bo'lgan grammatika tizimi bor. Bu universal qonuniyatlarni aniqlash tilshunoslikning nazariy asoslarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Til o'zgarishi va taraqqiyoti. Til doimo harakatda, o'zgarishda bo'lgan hodisadir. Unda yangi so'zlar (neologizmlar) paydo bo'ladi, ayrim so'zlar eskiradi (arxaizmlar), grammatik tuzilmalarda o'zgarishlar yuz beradi. Bu tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq. Tarixiy tilshunoslik tilning o'tmishini, u qanday rivojlanganini o'rganadi.

Zamonaviy umumiy tilshunoslikda dolzarb muammolar. Bugungi kunda umumiy tilshunoslik quyidagi zamonaviy masalalarni ham o'rganmoqda:

Kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt (NLP – Natural Language Processing);

Gender tilshunosligi – til va jins o'rtasidagi munosabat;

Ko'p tillilik va tillararo o'zaro ta'sir;

Internet va raqamli kommunikatsiya tili;

Globalizatsiya ta'sirida tillarning o'zgarishi va yo'qolib borishi. Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlariga to'g'irisida fik yuritadigan bo'lsak, xx asr tilshunosligida bir qancha yangi yo'nalishlar shakllandi. Ular orasida funksional tilshunoslik, kognitiv lingvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik va pragmatika yo'nalishlari alohida ahamiyat kasb etdi. Masalan, funksionalizm tildagi birliklarni ularning kommunikativ vazifasiga ko'ra tahlil etadi, kognitiv lingvistik esa tilni inson tafakkuri va idroki bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi

Strukturalizm: Ferdinand de Sossyur tilni tizim sifatida o'rgandi va "sinxroniya" hamda "diaxroniya" tushunchalarini joriy qildi.

Praga maktabi: tilning funksional tahliliga e'tibor qaratdi.

Amerika deskriptiv tilshunosligi: Leonard Blumfeld boshchiligida tillarning amaliy tavsifi rivojlandi.

Generativ grammatika: Noam Chomsky tomonidan yaratilgan bo'lib, insonning til qobiliyati tug'ma ekanligini ilmiy asoslashga urindi.

Hozirgi kunda tilshunoslik **sotsiolingvistik, psixolingvistik, kompyuter lingvistikasi, tarjimashunoslik, kognitiv lingvistik** kabi ko'plab yo'nalishlarga bo'lingan.

Umumiy tilshunoslikdagi muammolar: bugungi kunda umumiy tilshunoslikda bir qator dolzarb masalalar mavjud: til tizimini universal model asosida izohlash muammosi; sun'iy intellekt va avtomatik tarjima tizimlari uchun umumiy lingvistik asos yaratish; tillararo interferensiya va globalizatsiya ta'sirida til o'zgarishlarini izohlash; til va madaniyatning o'zaro ta'siri, milliy identifikatsiya muammolari.

Ushbu muammolarning yechimi fanlararo tadqiqotlarni kuchaytirish, lingvistik va informatika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar integratsiyasini ta'minlash orqali amalga oshirilmogda. Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganishda turli darajadagi muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhim. Umumiy tilshunoslikning amaliy ahamiyati: umumiy tilshunoslikning nazariy xulosalari amaliy tilshunoslik, tarjimashunoslik, kompyuter lingvistikasi, til siyosati va ta'lim tizimida keng qo'llanilmogda. Tilni o'qitish metodikasini ishlab chiqishda, nutq madaniyatini rivojlantirishda ham uning roli beqiyosdir. Hozirgi kunda axborot almashish, tezkor muloqot asrida insonlarning ruhiy zo'riqishlarini kuchaytirmogda. Ko'pchilikda toqatsizlik, asabiylik, ruhiy tushukunlik xolatlari kuzatililmogda. Har bir jamiyatda muhitni sog'lomlashtirish, kelajak avlodni ayniqsa yoshlarni ruhan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etmogda. Shuning uchun ham mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash yuzasidan tizimli ishlar olib borilmogda.

Tilshunoslikning bugungi o'rn: global kommunikatsiya vositasi sifatida tillarni o'rganish, tarjima nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish, sun'iy intellekt va mashina tarjimasida qo'llanish. milliy til va madaniyatlarni saqlash, ularni ilmiy asosda rivojlantirishdir. Umumiy tilshunoslikning predmeti va vazifalari

Umumiy tilshunoslik – tilni nazariy jihatdan o'rganuvchi, til hodisalarining umumiy qonuniyatlarini aniqlashga intiluvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. U konkret tilni emas, balki til tushunchasining o'zini markazga oladi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Tilning tabiatini tushuntirish;

Tilning ijtimoiy va biologik xususiyatlarini aniqlash;

Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish;

Tillar tipologiyasi va universal xususiyatlarini tahlil qilish;

Tilda yuz beruvchi tarixiy o'zgarishlar qonuniyatlarini o'rganish;

Til tizimining strukturasi belgilash

Umumiy tilshunoslik muammolari. Umumiy tilshunoslikda ko'plab murakkab va dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular asosan quyidagi yo'nalishlarda jamlanadi:

1. Tilning tabiati va mohiyati

Til nima? Bu savol umumiy tilshunoslikda eng asosiy muammo hisoblanadi. Tilni birinchi navbatda aloqa vositasi sifatida talqin qilish keng tarqalgan, ammo u bundan ancha kengroq funksiyalarga ega. Til – bu belgilar tizimi, inson tafakkurining vositasi, madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi mexanizm, bilim olish va uzatish vositasidir.

F. de Sossyur tilni “belgilar tizimi” deb ataydi. U tilni langue (tizim) va parole (nutq) deb ikkiga ajratadi. Shuningdek, til ijtimoiy hodisa sifatida odamlararo munosabatning poydevori hisoblanadi.

2. Til va tafakkur muammosi. Til bilan tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik uzoq yillardan buyon tilshunoslar, faylasuflar va psixologlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu muammo asosan quyidagi savollar orqali ifodalanadi:

Tafakkur til orqali shakllanadimi?

Har bir til o'ziga xos tafakkurni shakllantiradimi?

Til tafakkurni cheklaydimi yoki erkinlik beradi?

Sapir–Whorf gipotezasi bu borada mashhur nazariyalardan biridir. Unga ko‘ra, har bir tilda fikrlash tizimi o‘ziga xos bo‘ladi, ya‘ni til – tafakkurning shakllanuvchi omilidir. Bu fikr lingvistik relativizm nazariyasining asosi hisoblanadi.

3. Til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar

Tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bu til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadir. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat bilan chambarchas bog‘liq. U jamiyatning ehtiyojlari, ijtimoiy tuzilmasi, madaniyati va qadriyatlariga qarab shakllanadi va rivojlanadi.

Tarjima nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish, bugungi kunda yangi bosqichga ko‘tarilgan. Madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida millatlar o‘rtasidagi tafakkur, dunyoqarash va qadriyatlarni birlashtiradi. Tilshunoslik sun‘iy intellekt (AI) sohasining ajralmas qismiga aylandi. **Kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va neyron tarmoqlar asosida tarjima tizimlari** bugungi kunda AI rivojining markazida turibdi. Tilshunoslik bu sohada quyidagi jihatlarni ta‘minlaydi: grammatik va semantik model yaratish; nutqni avtomatik tanish (speech recognition) va sintez qilish (speech synthesis). Bu orqali mashina tarjimasini, ovozli yordamchilar (masalan, Siri, Alexa, Google Assistant) va chatbotlar sifatliroq ishlamoqda. Milliy til va madaniyatlarni saqlash, ularni ilmiy asosda rivojlantirish Globallashuv jarayonida ayrim kichik xalqlar tillari yo‘qolib ketish xavfi ostida. Shuning uchun tilshunoslikning yana bir dolzarb vazifasi — **milliy tillarni asrab-avaylash va rivojlantirishdir**.

Bu borada quyidagi yo‘nalishlar muhim: til siyosatini ilmiy asosda yuritish; tilni raqamlashtirish, elektron lug‘atlar va korpuslar yaratish; til madaniy merosini saqlash, dialektologik va etnolingvistik tadqiqotlarni chuqurlashtirish; yosh avlodga milliy tilni o‘rgatish va ona tiliga mehr uyg‘otish.

Umumiy tilshunoslik tildagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash, ularni ilmiy asosda tushuntirish va zamonaviy kommunikativ jarayonlarga tatbiq etish bilan shug‘ullanadi. Bugungi globallashuv davrida tilshunoslikning bu yo‘nalishi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, insoniyatning madaniy, ijtimoiy va texnologik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. U global kommunikatsiya, tarjima, sun‘iy intellekt va madaniy merosni saqlash kabi sohalarda yetakchi ilmiy yo‘nalish sifatida o‘z mavqegini mustahkamlamoqda. Shu bois tilshunoslikni rivojlantirish nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega masaladir.

Umumiy tilshunoslik – bu tilshunoslikning nazariy va chuqur tahliliy sohasidir. U tilning barcha tillarga xos jihatlarini o‘rganish orqali tilshunoslikning asosiy ilmiy asoslarini belgilab beradi. Bu sohaning muammolari nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy hayotda – ta‘limda, tarjimada, texnologiyalarda, madaniyatlararo muloqotda ham katta o‘rin tutadi. Shuning uchun umumiy tilshunoslik muammolarini chuqur o‘rganish tilshunoslik fanining rivoji uchun zarur hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saussure, F. de. Cours de linguistique générale. – Paris, 1916.
2. Humboldt, W. von. On Language: The Diversity of Human Language Structure and Its Influence on the Mental Development of Mankind. – Cambridge, 1988.
3. Qodirov A. Tilshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Xojieva M. Zamonaviy lingvistik yo'nalishlar. – Toshkent: Universitet, 2020.
5. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge University Press, 2019.
6. “Methodology of teaching foreign languages – innovations, traditions, problems and their solutions” March 15, 2024 Chet tillarni o'qitish metodikasi-innovatsiyalar, an'analar, muamolar va yechimlar.